

Stol tennisi bo'yicha musobaqalar natijalari

// 29.05.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/stol-tennisi-bo-yicha-musobaqalar-natijalari>

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milliy forumida ishtirokchilar sport musobaqalarida o'z korxonalari sha'nini munosib himoya qilishdi.



Xususan, yigitlar o'rtasida o'tkazilgan stol tennisi musobaqasida 1- va 2-o'rinlar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ mutaxassislari Ubaydulla Musulov va Shohrux Ulashevga nasib etdi. "Maxam-Chirchiq" AJ xodimi Sherzod Gafurbekov 3-o'rinni egalladi.

Stol tennisi bo'yicha qizlar o'rtasidagi bahslarda esa barcha faxrli o'rinlar "Qo'ng'irotd soda zavodi" MCHJ qizlariga nasib etdi. Shohista Usnatdinova-1-o'rin, Bagjan Kuchkarova 2-o'rin, Gulnara Uzakbayevalar 3-o'rinni zabt etishdi.









G'olib yoshlarni munosib g'alaba bilan tabriklaymiz.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati